AFSONAVIY SIZIF FENOMENI – GOMERDAN ERNEST XEMINGUEYGACHA

Shaxnoza Tursunova
Alisher Navoiy nomidagi
O‘zbek tili va adabiyoti
universiteti 2-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: ***Jo‘raqulov U.H.***
filologiya fanlari doktori, professor

Annotatsiya: *ushbu maqolada jahon adabiyotida, xususan, G‘arb adabiyotida Sizif obrazining turli davrlardadi poetik takomili, ijodkorlarning asarlarida Sizif femonening aks etishi hamda turli adabiyotshunoslarning u fikrlari haqida so‘z yuriligan.*

Аннотация: *в данной статье рассматривается поэтическая эволюция образа Сизифа в различные периоды мировой литературы, в частности, в западной литературе, отражение феномена Сизифа в произведениях писателей, а также мнения различных литературоведов по этому вопросу.*

Annotation: *this article discusses the poetic evolution of the image of Sisyphus across various periods in world literature, particularly in Western literature. It examines the reflection of the Sisyphus phenomenon in the works of different authors and presents the views of various literary scholars on this subject.*

Kalit so‘zlar: *iroda, Sizif mehmati, Sizif toshi, psixologik parallelizm, “stoitik qahramon”.*

Antik davrda Sizif xudolarga qarshi chiqqan kibrli inson sifatida tasvirlangan. Bu obraz orqali mualliflar inson va ilohiy iroda o‘rtasidagi muvozanat haqida fikr yuritganlar. U abadiy jazoning ramzi, insonning imkoniyat chegarasi va jinoyatning muqarrar jazosi timsoli bo‘lgan. Sizif fenomeni ilk bor Gomerning «Odisseya”, Pindarning “Olimpik odalar”ida, Ovidiyning “Metamorfozalar”i, Yevripid va boshqa mualliflar tomonidan turlicha talqin etilgan. Gomer «Odisseya”sida Sizifning dahshatli qatl etilishini ko‘rganini, uning pastdan og‘ir toshni ikki qo‘li bilan tepalikka, yuqoriga ko‘targani, lekin cho‘qqiga zo‘rg‘a yetib borarkan, og‘ir yuk bilan pastga tomon dumalagani haqida yozadi. Sizifni Pindar o‘ziga xos she’riy uslubda uning ayyorligi, xotirjamligi va xudolarni aldaganini eslaydi.

Pindar Olimpik 13-odasining 75-chi oyatlari (yoki tegishli qismi)da:

> ***“…Thence Sisyphus, the craftiest son of earth,***
> ***His hands endued with more than mortal skill …”***[1]

[1]en.wikisource.org/wiki/Pindar_and_Anacreon/Pindar/Olympic_Odes

ya’ni, Pindar Sizifni “yerning eng zehnlisi” (craftiest son of earth) deb ta’riflaydi va uning qo‘llarida “mortaldan tashqari mahorati” borligini aytadi. Shuning uchun “more than mortal skill”[2] iborasi tarjima qilinganda:

-oddiy insonga nisbatan yuqori mahorat;

-inson tabiatiga siqmaydigan darajadagi qobiliyat;

-foniy insondan ustun mahorat degan ma’nolarni anglatadi. Pindarning uslubida bu jumla Sizifning oddiy odamlardan ziyoda aql, hunar va ayyorlikka ega ekanini poetik tarzda ta’kidlaydi. Ya’ni, u nafaqat “zehnli inson”, balki aqli bilan xudolarning o‘ziga yaqinlashib ketgan darajada “insondan ustun” deb ko‘rsatiladi. Bu parchada Pindar Sizifni odatdagi jazo olgan gunahkor emas, balki insonlar orasida eng zehnli, eng hiylakor va eng aqlli shaxs sifatida tasvirlaydi. Uning “mulohaza va nayrangda tengi yo‘q” ekani ta’kidlanadi. Bu — Sizif obrazining antik dunyodagi eng qadimiy poetik talqinlaridan biridir. Pindar tasvirlagan Sizif — inson irodasining ilk qahramoni, o‘z joni uchun, o‘z mavjudligi uchun oyoqda mustahkam turadigan obraz. Bu talqinda Sizif “azob timsoli” emas, balki aqlli jasorat ramzi deb qaralgan bo‘lsa, keyingi antik manbalar: jazo va abadiy mehnat. Sofokl, Esxil va Apollodor davrida Sizif haqidagi rivoyat kengayadi. Unga nisbatan quyidagi motivlar paydo bo‘ladi: Xudolarga qarshi kelgani uchun jazo, Tog‘ tepasiga toshni surish — ammo u har safar qayta qulaydi,“Abadiy mehnat” g‘oyasi.

Sizif fenomeni – antik mifologiida Sizif nomi bilan tanilgan personajdan olingan. U to‘g‘risidagi mifda Sizif, gўyo, olivalikka yaqinlashgani uchun ushlagan jazo sifatida to‘siqsiz toshni yarqangmizga ko‘tarib yurib, uning qo‘ymasi to‘xtagan so‘ng, qaytadan yerga tushishini kutgan holda, doimiy ravishda bu ishni takrorlashga majbur bo‘ladi. Ushbu jarayon, shubhasiz, insonning anglashli, iloji yo‘q holatlari va ekzistensial muammolarni ifoda etadi.

Ernest Hemingueyda Sizif fenomeni falsafiy ifodalangan. Uning asarlarida insonning ichidagi kurash, hayotning bezovtaliklari va muntazam xosiyatdagi harakat konsepsiyasi o‘rin olgan. Hemingueyning "Farhodning olipi" romanida Sizifning kurashi va taraqqiyotga erishish uchun berilgan jonli hayajonlar ko‘ralomiz. Chunki u personajlariga qarab hayotning noaniqligi va mo‘l-taki u yuldizga yondoshishi o‘z ichidagi omonatlarga qarshi kurash voldati. Hemingueyning bunday ifodasi qo‘ylarga, xususan, norasmi haqidagi fikrlarda o‘ta muhim muammo hisoblanadi.

Sizif fenomeni – insonning muntazam qaytmasi, sizsizlik, ro‘y berishi kerak bo‘lgan yo‘llarda to‘xtalmaslikni ifodalaydi. Uning Xeminguey badiiy asarlaridagi

[2] *“Mortal”* сўзи қадим грек ва инглиз адабий тилида “ўлимли, фоний, инсонга хос” деган маънони англатади. http://pearsonelt.com/dictionaries. Longman English Dictationaries/Pearson Education Limited, 1978, 2014/

darsligini his qiladigan barcha men yakuniy xulosadir. Bundan tashqari Sizif insonning shijoshlikta kurashishi va ota-onasiga qarshi kurashisida bo‘ladi.

XX asrga kelib Sizif obrazi yangi poetik va falsafiy ma’nolarga ega bo‘ldi. Unda ma’naviy va ruhiy iztirob, begonalashish, yolg‘izlik, turmushdagi umidsizlik, ma’nisizlik, oiladan uzilish kabi muammolar yo‘lidagi badiiy-falsafiy izlanish jahon nasri rivojiga ulkan hissa qo‘shgan yozuvchi Frans Kafkaning ham ijodkor, ham shaxs sifatida kamol topishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Garchi Kafka o‘z asarlarida Sizif nomini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘p ishlatmagan bo‘lsa-da, uning qahramonlari — “zamonaviy Siziflar”dir. Cheksiz va natijasiz mehnat- Sizifning jazosi — toshni tepalikka dumalatib chiqish va uning yana pastga qulashini kuzatish. Bu jarayon abadiy va mantiqsiz. Kafkada esa- uning qahramonlari (masalan, “Qal’a”dagi K. yoki “Jarayon”dagi Yozef K.) xuddi shunday harakat qilishadi. Ular maqsadga intilishadi (qasrga kirish yoki sudda oqlanish), lekin har safar marraga yaqin qolganda tizim ularni orqaga uloqtiradi. Mehnat bor, lekin natija nolga teng. Bu — absurdning vizual ko‘rinishi. Kafka qahramonlarining toshi — tugamaydigan qog‘ozbozlik, tushunib bo‘lmaydigan qonunlar va eshigi hech qachon ochilmaydigan idoralar. Kafka ijodida umid va mag‘lubiyat tragediyasi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Kafka qahramonlarida farq: Ular ko‘pincha nima uchun jazolanayotganini yoki nima uchun harakat qilayotganini oxirigacha anglab yetmaydilar. Agar Sizif o‘z fojiasini anglagan bo‘lsa, Kafka qahramonlari nomuayanlik (uncertainty) ichida yashaydilar. Bu Kafkacha Sizif fenomenini yanada dahshatliroq qiladi.

Absurd adabiyotga o‘z hissasini qo‘shgan yozuvchilardan yana biri Alber Kamyu hisoblanadi. Atrofida ko‘p bema’ni ishlar, odamlarni ko‘rgani, o‘zi ulg‘aygan sharoit, urush vaqtidagi turli xil qiyinchiliklar sabablimi Kamyu e’tiborini, asosan, absurd, ekzistensializm va ison mavzulariga qaratdi. Kamuning o‘zi asarlarining ikki turkumi haqida gapiradi. 30 yillar ishlari absurd mavzusiga bag‘ishlangan asarlar: “Sizif haqida afsona” falsafiy essesi, “Begona” qissasi va “Kaligula” pyesasi. Ison mavzusiga esa “Isonkor odam” essesi, “Taqvodorlar” pyesasi va “Vabo” romanini kiritish mumkin.

Alber Kamuning 1942-yilda yozgan «Sizif afsonasi” asari bu obrazni falsafiy-ekzistensial nuqtayi nazardan qayta talqin qiladi. Kamuning fikricha, Sizif tosh pastga dumalab tushayotgan va u orqasidan tushayotgan daqiqada o‘z taqdiridan ustun turadi (chunki u vaziyatni anglaydi).

Kamyu talqinidagi Sizif haqidagi afsona bizga shuni o‘rgatishi kerakki, ma’no izlash paradoksal tarzda bizni mavjudlikning ma’nosizligi zulmatiga olib boradi, biz hayotning ma’nosini anglashga qanchalik ko‘p harakat qilsak, ichki o‘zgarishga, ichki ijodga shunchalik kam intilamiz. Bu jihatdan Sizif - absurd qahramon, u Kamyu ta’kidlaganidek, paradoks odam. Haqiqatan ham, Sizif har kuni toshni qoyaga dumalatadi, keyin tosh tushadi, shunga ko‘ra Sizif yana uning ortidan yugurishga va

yana toshni dumalatishga majbur bo‘ladi. Afsonaning an’anaviy talqini Kamuning behuda mehnati va ilohiy jazosi haqidagi rivoyat sifatida to‘liq qoniqtirishga qodir emas.

A.Kamyu esselarida mifologik obrazning yangi universal ma’no bilan boyishi sodir bo‘ladi. Uning essesi g‘oyaviy yo‘nalishini tavsiflovchi asosiy fikr insonning eng imkonsiz (hatto bema’ni) sharoitlarda baxtli bo‘lib qolishi, o‘z burchini bajarishi (Kamuda - taqdirga bo‘ysunish) va qo‘yilgan vazifaning yagona ijrochisi bo‘lib qolishi mumkinligi haqidagi fikrdir.

Kamyu tasavvuridagi mifning yana bir muhim ma’nosi yunon mifining zamonaviy inson hayoti va faoliyati bilan bog‘liqligidir: "Bu mif fojiadir, chunki uning qahramoni ongga ega. Agar uni har qadamda muvaffaqiyatga erishish umidi qo‘llab-quvvatlab turgan bo‘lsa, qanday jazo haqida gap bo‘lishi mumkin? Bugungi ishchi butun umri davomida shunday yashaydi va uning taqdiri ham fojiali. Lekin uning o‘zi faqat o‘ziga kelgan onda-sondagina fojiali bo‘ladi. Xudolarning proletariysi, kuchsiz va isonkor Sizif o‘zining qayg‘uli qismatining cheksizligini biladi”.

Umuman olganda, shuni ta’kidlash kerakki, A. Kamuning Sizif haqidagi afsonani talqin qilishi eng yuqori darajada to‘g‘ri va asosli, chuqur, barcha davrlar uchun dolzarb bo‘lib tuyuladi. “An’ana Sizifni xudolar va odamlar qonunlarini mensimaydigan ayyor boyvachcha sifatida tasvirlaydi”[3]. Biroq, bu qahramon haqida boshqacha tasavvur ham mavjud: ko‘pincha u "o‘zining uddaburonligi bilan xudolarning o‘zboshimchaligiga qarshi turuvchi qahramon-xudo kurashchisi" sifatida tasvirlanishi mumkin. Hatto Aidda ham Sizif ularni aldashga muvaffaq bo‘ldi: "u yerga qaytgan yagona marhum bo‘lib chiqdi". Shunday qilib, u hayotga bo‘lgan cheksiz muhabbati, shuningdek, o‘zining uddaburonligi bilan xudolar oldida shafqatsiz gunoh qildi, shuning uchun u oxiratda og‘ir jazoga tortiladi. U umrbod og‘ir toshni tepaga dumalatishga mahkum, so‘nggi soniyada u yana va yana uzilib, pastga, tog‘ etagiga uchadi va Sizif yana ishga kirishishga majbur bo‘ladi, lekin hech qachon pirovard maqsadga erisha olmaydi.

Har kungi ishga borish - aslida, xuddi toqqa tosh ko‘tarishga uzluksiz urinishdek bema’ni mehnat, chunki u baribir pastga dumalab tushadi. Sizif, qadimgi yunon kishisi sifatida, gunoh qilgani uchun jazolanishi kerak edi. “Chunki gunohkorlik darajasini insonning tabiati belgilaydi, jazo esa o‘nglovchi, poklovchi kuch sifatidagi zaruratdir[4]. Fransuz yozuvchisi va faylasufi Jan Grenye Sizifni “unutilgan

[3] Мифологический словар / гл. ред. Е.М. Мелетинский. - М.: Сов. энциклопедия, 1991. - 503 б.

[4] Бахтин М. Романда замон ва хронотоп шакллари. / Рус тилидан У.Жўрақулов таржимаси. – Тошкент:
Akademnashr, 2015. – Б. 86.

xotiralardagi qahramon" deb ta'riflagan[5] bo'lsada uning shogirdi va eng yaqin do'sti Alber Kamyu o'zining individualizm va absurdlik konsepsiyalari asosida insonning yolg'izlik holatlarini yoritish orqali Sizifni zamonaviy yunon mifologiyasining eng yuqori cho'qqisiga olib chiqdi va ma'lum ma'noda Sizifga o'z haqiqatini qaytardi. Shubhasizki, Sizif bunga loyiq, u katta adabiy asarlar, adabiy g'oyalarni amalga oshirish uchun keraklicha asos bera oladigan qahramon edi. Zero, bunday muhim qahramon bo'lgan Sizif Kamudek ekzistensialistning nazaridan chetda qolishi mumkin emas edi.

Antik davr ijodkori Gomer bizga aynan mana shu narsa – o'limning muqarrarligini ta'kidlagan. Bu esa o'limga qarshi kurashish hayot kuchini keraksiz va behuda sarflashni anglatadi! O'z navbatida, Kamyu Sizifni jazolash sabablariga Gomerchalik qiziqmadi. U jazoni o'zicha tushunishga harakat qiladi va eng asosiy jihat Kamyu Sizifni "o'lik tana" deb bilmaydi. Kamyu ko'proq jazoning o'zi bilan qiziqadi, uning Odessiyadagi voqealar rivoji bilan ishi bo'lmagan. Sizifning xudolarga va o'limga bo'lgan nafrati hamda hayotga bo'lgan ehtirosi unga butun odamzod istamaydigan mazmunsiz mehnat, adoqsiz mashaqqat hamda yolg'izlik kabi azoblarni ro'baro' qiladi[6].

G'arb ijodkorlari Kamudan keyin ham Sizif fenomeniga e'tibor qaratishda davom etdi. Kamuning qarashlari bevosita adabiyotga ta'sir etdi va ulug' yozuvchilar ijodida Sizifning yangi talqinlari vujudga keldi. Shu jumladan, Ernest Hemingueyning "Chol va dengiz" asaridagi Santyago obrazi Sizifning zamonaviy adabiy qiyofasidir. Santyago okean to'lqinlari va taqdir sinoviga qarshi turib, ulkan baliqni tutadi, ammo uni so'ngi daqiqalargacha saqlay olmaydi. Bu voqea Sizifning toshi kabi doimiy takrorlanish, insonning mag'lubiyati va shu bilan birga ruhiy g'alabasini ifoda etadi. Santyago ham Sizif singari mag'lubiyat orqali ma'naviy yuksaklikka erishadi. Shuning uchun Hemingueyda Sizif — nafaqat abadiy mehnat, balki ma'naviy iroda va inson qadr-qimmatining ramzi sifatida ko'rsatiladi. Amerikalik yozuvchi "Chol va dengiz"da Sizifni to'g'ridan-to'g'ri tilga olmaydi. Ammo Santyago — ulug' an'ananing davomchisidir. Santyago: hech qachon to'xtamaydi, mag'lubiyatdan qo'rqmaydi, hatto yengilganda ham ruhan yengilmaydi, mehnat va matonatni inson sharafi sifatida bilib yashaydi. Uning Marlin bilan kurashi — Sizifning tosh bilan kurashining modern davrdagi aksi. Xeminguey bu obrazni to'g'ridan-to'g'ri tilga olmagan bo'lsa-da, Santyagoning o'ziga qarshi abadiy kurashi (dignified struggle) shu antik ruhni — aynan "Sizifona matonat"ni qayta jonlantiradi.

---

[5] Grenier J. Albert Camus. Souvenirs. – Paris, Gallimard, 1968. – P. 15

[6] Асадов М.Т."Жаҳон ва ўзбек насрида "ёлғизлик мотиви"нинг модернистик талқини **(А.Камю, Х.Дўстмуҳаммад, У.Ҳамдам насри мисолида)" мавдусида** PhD илмий даражасидаги диссертация иши, Т.2022, 55-б.

Bir so‘z bilan aytganda, Xeminguey ijodida inson ruhi, uning ichki “men”i birinchi o‘ringa ko‘tarilgan. U asarlarida lirik chekinishlarni ustalik bilan ko‘rsata olgan. Ritmik uyg‘unlik prozaik asarlarda ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Shu bois “…Xeminguey asarlarida ichki rimtning yorqin misolini ko‘rish mumkin”[i].

Filip Yang Xeminguey ijodida inson irodasi, uning ruhiy holatlarini tadqiq qilgan olimlardan biri hisoblanadi. Uning tadqiqotlarida Xeminguey qahramonlarining psixologiyasi, ularning yozuvchi ijodiga, hayotidagi o‘rni kabi masalar o‘rin olgan.

Yengilish- mag‘lubiyatni tan olishning birinchi qadami bo‘lgani kabi bu qadamni tashlamaslik uchun keksagina bir odam kurashga shaylanadi: "Yengilib bo‘lganingdan keyin yelkangdan tog‘ ag‘darilganday yengil tortasan- qo‘yasan! Xayol qildi u. Men buning shunchalik oson bo‘lishini bilmasdim... kim ham seni yenga oladi o‘zi, chol? – so‘radi u o‘zidan. Hech kim,- javob berdi u".

Santyago hayotdagi bir haqiqatni, ya’ni insonni yengib bo‘lmaydi, degan falsafiy g‘oyani yta olgan. Ammo, uning ichki qiyofasi matonatli va metin iroda sohibi ekanligini tasdiqlaydi.

Ernest Xemigueyning qahramonlari keksa bo‘lishiga qaramay, ochiq dengizda, ulkan baliq bilan kurasha oladi. Xeminguey turli obrazlar yaratdi, shu qahramonlar qalbida yashadi va olam aslida biz uchun qanday ekanligini ko‘rsatib bera oldi. Uni qalam bilan inson qalbini, ruhini so‘z bilan chiza olgan yozuvchi sifatida e’tirof etish mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Гомер, Одиссей ИИ, 595.
2. Затонский Д.В «Зеркала искусства», М. : Сов. писатель, 1975. Стр.15
3. Кун Н.А. “Қадимги юнон афсона ва ривоятлари, Самарқанд 2005, 54-б
4. Маҳмадиёр Асадов “Сизиф ҳақида миф. Камю ва Х.Дўстмуҳаммад” Ўзбекистон: тил ва маданият. 2023, 3-сон
5. Иванова Е.В. Мифологическое смыслооброзование. Автореферат. Екатеринбург, 2005
6. Отто Ранк “Миф о рождении героя” 2020
7. Камю А.– «Сизиф афсонаси», М. 1942 йил
8. Овидий Н.. Метаморфозы. Москва 1913г.
9. Хемингуэй Э. Избранные произведения, в двух томах, I том. Введение. М; - Гослитиздата. 1959.
10. Олеша Ю. Повести и рассказы. М; - "Литература", 1965. С. 478-479
11. Днепров В. Черты романа XX века. М; - "Литература", 1965, с. 525

[i] Днепров В. Черты романа XX века. М; - "Литература", 1965, с. 525